



Alisher MADRAXIMOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti xodimi
E-mail: aliyusufjonovich@gmail.com

NamMQI PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIIY TARMOQLAR TA'SIRIDAGI MANZARALARI

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat, siyosat, ma'naviyat va madaniyatga ta'sirini turli tomondan o'rganishga harakat qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri natijasida dunyoning geosiyosiy, geomafkuraviy, axborot-kommunikatsion, ijtimoiy aloqalar va madaniy manzaralari shu bilan bir qatorda axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va global munosabatlarga ta'siridagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq, geomafkura, geosiyosat, axborot, ma'naviyat, madaniyat, heartland, yoshlar, virtual borliq, dezinformatsiya.

СЦЕНЫ СОВРЕМЕННОГО МИРА ПОД ВЛИЯНИЕМ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация

Данная статья посвящена многостороннему изучению влияния социальных сетей на общество, политику, духовность и культуру в современном мире. В исследовании анализируется влияние социальных сетей на геополитические, геоидеологические, информационно-коммуникационные, социальные связи и культурные ландшафты мира, а также их роль в распространении информации, формировании общественного мнения и воздействии на глобальные отношения.

Ключевые слова: Социальные сети, геоидеология, геополитика, информация, духовность, культура, хартленд, молодежь, виртуальная реальность, дезинформация.

LANDSCAPES OF THE MODERN WORLD INFLUENCED BY SOCIAL NETWORKS

Annotation

This article undertakes a multifaceted study of the impact of social networks on society, politics, spirituality and culture in the modern world. The research analyses the influence of social networks on the geopolitical, geo-ideological, information communication, social connectivity and cultural landscapes of the world, as well as their role in disseminating information, shaping public opinion and influencing global relations.

Key words: Social networks, geo-ideology, geopolitics, information, spirituality, culture, heartland, youth, virtual reality, disinformation.

Kirish. Zamon va makonlarning o'zgarishi, taraqqiy etishi natijasida dunyoning turli manzaralari shakllandi va shakllanmoqda. Bu jarayon biologik, geografik, iqtisodiy, ijtimoiy, geosiyosiy va ma'naviy sohalarida o'ziga xos o'zgarishlarni keltirib chiqardi, shu bilan birga, bugungi kunda yangi manzaralar sifatida geomafkuraviy va axborot-kommunikatsion sohalarini ham qamrab olmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, bu o'zgarishlar nafaqat moddiy dunyoda, balki inson ongida va jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy asoslarida chuqur iz qoldirmoqda. Zamonaviy davr, ayniqsa, g'oyaviy qarama-qarshiliklarning murakkab tus olgan davri sifatida alohida e'tiborga molik. Mafkura poligonlari bugungi kunda yadro poligonlaridan ham kuchliroq ta'sirga ega bo'lib bormoqda, chunki ular nafaqat davlatlar o'rtasidagi chegaralarni, balki odamlarning qalbi va ongini zabt etishga qaratilgan. Facebook, Instagram, Twitter, TikTok va Telegram kabi platformalar insoniyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotini tubdan o'zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot vositasi, balki global tendensiyalarni shakllantiruvchi, jamiyatlarning dunyoqarashini o'zgartiruvchi va yangi ijtimoiy manzaralar yaratuvchi kuchga aylandi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy dunyo manzaralariga ta'siri ko'rib chiqiladi va uning asosiy ko'rinishlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi va insoniyatga ta'sir natijasida XX asrning 80-yillarida jahonning "bipolyar" geosiyosiy tuzilishining inqirozga yuz tutishi hamda taraqqiyotning "ko'p vektorlik" tendensiyasining yaqqol namoyon bo'lishi tamoman yangicha geosiyosiy va geomafkuraviy yondashuvlarning paydo bo'lishi hamda shakllanishiga hamda axborot-kommunikatsion manzarasini taraqqiyotiga sabab bo'lmoqda. Masalan, P.Galluaning "Geosiyosat qudrat manbalari" asarida davlatning

imkoniyatlari, kuch-qudrati, uning hududi, aholisi, geografik holati, chegaralari va zahiralari (shu jumladan, eng yangi ommaviy qirg'in qurollariga ega ekani) bog'liqligi e'tirof etiladi [1].

Dunyoning shiddat bilan rivojlanishi oqibatida geomafkura degan tushuncha paydo bo'ldi. Yana shuni aytish mumkinki, kuchli siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan mafkuralar milliylik qobig'idan geomafkuraviy jarayonlarni vujudga keltirmoqda. Geomafkura xalqaro munosabatlar nazariyasida nisbatan yangi va endi o'rganilayotgan tushuncha bo'lsada, jamiyat taraqqiyotida kuch markazlari tushunchasi paydo bo'lgan davrda yuzaga keldi. Xalqaro munosabatlarda ishtirok etuvchi faylasuflar, siyosiy arboblari yoki mazkur masalalar bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik tadqiqotchilar muayyan maqsadlarni ko'zlagan holda o'z qarashlarini ilgari sursada, mulohazalarida geosiyosiy, geoiqtisodiy omillarga kengroq e'tibor qaratishgan. Yurtimiz olimlaridan R.Jumaev va Sh.Yovqochevlar geomafkuraga "Xalqaro munosabatlar nazariyasiga oid kategoriya bo'lib, u har tomonlama xususiyatlarga hamda muayyan qonuniyatlar va mezonlarga asoslanuvchi geosiyosat va mafko'ra o'rtasidagi ham o'zaro bog'lanish, ham o'zaro ta'sir etuvchi amaliy harakatlar yig'indisidan iboratdir" [2] deya ta'rif beradi.

Dunyoning axborot-kommunikatsion manzarasi deganda zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va ularning global miqyosda axborot almashinuviga, ijtimoiy munosabatlarga, iqtisodiyotga va madaniyatga ta'siri tushuniladi. Bu manzara internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil aloqa, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va boshqa raqamli vositalar asosida shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat, siyosat, iqtisodiyot va madaniyatga ta'sirini falsafiy jihatdan o'rganishga qaratilgan mazkur tadqiqot ishi turli tadqiqot

metodlaridan foydalanadi. Adabiyotlar tahlili, ijtimoiy tarmoqlardagi kontent tahlili hamda real voqealarga asoslangan case study usullari qo'llaniladi. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlash, global va mahalliy farqlarni ko'rsatish hamda kelajak tendensiyalarini bashorat qilishni maqsad qiladi.

Natijalar va muhokama. Internet xususan ijtimoiy tarmoqlarning yaratilishi mafkuraviy, g'oyaviy, siyosiy ta'sir o'tkazishning o'ziga xos jihati sifatida katta mablag' talab qilmagan holda yuqori samara berishidir. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyatga turli tuman axborot va ma'lumotlarni tarqatilishi dunyoning an'anaviy falsafiy manzaralari bilan bir qatorda virtual olmada yangicha manzaralari vujudga keltirmoqda.

Shu jihatda uni quyidagi turlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Dunyoning geosiyosiy manzarasi. Geosiyosat nuqtayi nazardan davlat yoki mintaqaning quruqlik yoki dengizga nisbatan qanday geografik hududda joylashganligi muhim sanaladi. Bu fundamental dualizmga asoslanadi. Fundamental dualizm bir-biriga geografik jihatdan mos kelmaydigan tellurokratiya – “quruqlik ustidan hokimiyat” va talassokratiya – “dengizlar ustidan hokimiyat”dan iborat [3]. Demakki, tellurokratiya va talassokratiyani geosiyosatning asosiy qonuniyatlari deb izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining geosiyosiy o'rni klassik siyosatchilar tomonidan ajratilgan Yevroosiyoing ichki kontinental qismi, ya'ni Heartland (ingl. Heartland – dunyoning yuragi), hamda Yevroosiyoing janubi-g'arbiy dengizga yaqin mintaqasi Rimlend (Rimland – ichki yarim oy)ning o'zaro tutashgan hududida joylashganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat esa jahonda yetakchilikni qo'lga kiritishni rejalashtirayotgan ko'plab davlatlarning respublikamizga nisbatan geosiyosiy qiziqishlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda [4]. Dunyodagi geosiyosiy jarayonlarning o'zgarishi va takomili davlatimizga yangi-yangi strategik maqsadlarni belgilashga va uni amalga oshirishga turtki bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son farmoni V. “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar”ning 5.2-bandida chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi [5].

Ijtimoiy tarmoqlar geosiyosiy jarayonlarda axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qilishda muhim vositaga aylandi. Uning asosiy jihatlari sifatida quidagi holatlarda namoyon bo'lmoqda:

– axborot urushi va dezinformatsiya: Ijtimoiy tarmoqlar orqali soxta yangiliklar va manipulyativ xabarlar tezkor tarqaladi va natijada davlatlar yoki manfaatdor kuchlar o'z geosiyosiy maqsadlari ro'yobga chiqarish uchun ichki barqarorlikni buzishga intiladi.

– jamoatchilikni safarbar qilish: Mankur jihatni asoslash uchun birgina “Arab bahori” nomi bilan tarixda qolgan voqealarni keltirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar bu voqealarda odamlarni birlashtirish va siyosiy o'zgarishlarni rag'batlantirishdagi kuchini ko'rsatdi.

– davlatlarning imidji: Ijtimoiy tarmoqlar davlatlarning xalqaro maydondagi obro'sini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Masalan, Twitter (X) yoki boshqa platformalarda tarqalgan ijobiy

yoki salbiy tasvirlar bir mamlakatning geosiyosiy pozitsiyasiga ta'sir qilishi ehtimoli yuqori.

2. Dunyoning geomafkuraviy manzarasi. Bugun duyoda yuz berayotgan voqealar geosiyosatda geomafkura tushunchasini farqlashni talab etmoqda. Shu bilan birgalikda bu ikki tushuncha bir biri bilan o'zaro bog'likni kasb etmoqda. Geosiyosatdagi geosiyosiy maydon tushunchasi geomafkuraning milliy-etnik turini anglashga ko'mak beradi, ya'ni:

– endemik maydon – uzoq vaqtdan beri ma'lum bir milliy jamo tomonidan nazorat qilinib kelinayotgan borliq (masalan, Sharqiy Turkistondagi uyg'urlar).

– chegaraviy maydon – davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo'lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo'ladi (masalan, Janubiy Qozog'istondagi o'zbeklar).

– chorrahaviy yoki tutashgan maydon – qanday milliy jamoalar yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar da'vogar bo'lgan geosiyosiy maydon (masalan, Turkiya, Eron, Iroq va Suriya hududlarida yashovchi kurdlar).

– hadsiz-hududsiz maydon – bu keng geografik maydon bo'lib, u yerda istiqomat qilayotgan yuzlab milliy jamoalar turmush tarzi ma'lum bir geosiyosiy kuch yoki millat vakillari tomonidan nazoratga olinishini nazarda tutadi [6]. Umuman olganda geomafkuraviy masalalarni milliy-etnik jihatdan tadqiq etish birmuncha chigal va murakkab ish sanaladi.

Geomafkuraviy jarayonlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirish natijasida quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda deyish mumkin:

– dunyodagi zo'ravonlik. Geomafkuraviy maqsadlar natijasida unga manfaatdor bo'lgan kimsalar tomonidan topilayotgan muammolar turli davlatlarning ichki va tashqi munosabatlarni izdan chiqarmoqda. 2025-yilning bugungi holatiga ko'ra, dunyoda bir nechta faol qurolli mojarolar mavjud, masalan, Ukraina-Rossiya mojarosi yoki Yaqin Sharqdagi vaziyatlar.

– yetakchilikka intilish. Bu jarayon bugungi kunda dunyoning barcha mintaqalarini qamrab olgan. Unga ko'ra, muayyan davlatlar o'z muammolarini hal etish, iqtisodiy farovonlikka erishish uchun qo'shni davlatlar va o'zga xalqlarning manfaatlarini hisobga olmayotir. Mazkur jarayon aslida “bo'lib tashla – hukmronlik qil” illatining hosilasi ekani anglab yetilinmayapti.

– ma'naviy zaiflik. Mazkur hodisa eng tashvishlisidir. Chunki inson ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida dunyoqarash, axloq va faoliyat jihatidan zaiflashib bormoqda. Terrorizm, ekstremizm va “demokratiyani olg'a siljitish” harakatlari shuning natijasidir. Bu harakatlar milliy birlik, birodarlik va hamkorlikka rahna solmoqda.

– geomafkuraviy beqarorlik. Mazkur tushunchani “mafkuraviy beqarorlik” tushunchasining aynan o'zi deb atash mumkin. Mafkuraviy beqarorlik – kishilik jamiyatiga xos muayyan xususiyatlardan biri. Mafkuraviy sohadagi tamoyillarning qaror topmagani, doimiy bo'lmagani, muqim bo'lmagani kabi ma'nolarni anglatadi.

3. Dunyoning axborot-kommunikatsion manzarasi. Dunyoning axborot-kommunikatsion manzarasi axborot-texnologiyalari va internetning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. AKT sohasi butun dunyo mamlakatlarining infratuzilmalariga – siyosat, ta'lim, sog'liqni saqlash, telekommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, biznes va savdo, infratuzilma va boshqa shu kabi tarmoqlarga kirib bordi. Bu davrda axborotning 2 xususiyatini farqlash lozim, ya'ni ijobiy va salbiy (1-jadval).

1-jadval. Axborotning ijobiy va salbiy jihatlari

№	Sohalar	Ijobiy jihatlar	Salbiy jihatlar
1.	Bilm va ta'lim olish	Ma'lumotlarga tez ega bo'lish, onlayn kutubxonalar, ta'lim platformalari, global bilim almashuvi, inklyuziv ta'lim	Ma'lumot sifatiga ishonchsizlik, ta'limdagi tengsizlik, tanqidiy fikrlashning susayishi, mustaqil fikrlashni yo'qolishi
2.	Aloqa va ijtimoiy munosabatlar	Virtual tez muloqotga kirishish, onlayn jamiyatlar shakllanishi, turli madaniyatlar o'rtasidagi integratsiyalashuv	Ijtimoiy izolyatsiya, kiberbuling, madaniy eroziya, kiberjinoatchilik
3.	Iqtisodiyot va biznes	Yangi onlayn bozorlar, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, masofadan ishlash, virtual kriptovalyutalar, ijtimoiy tarmoqlarda reklamalar, shaxsiy biznes	Ishsizlik xavfi, raqobatning kuchayishi, iqtisodiy tengsizlik, maxsuslarga ishonchsizlik
4.	Ma'naviy va axloqiy soha	Ommaviy xabardorlik, dunyoqarashning kengayishi, hayriya va ehsanlar (Crowdfunding)	Ma'naviy qadriyatlarga tahdid, axloqsiz kontentlar, ma'naviy buzilish, axloqiy nisbiylik
5.	Siyosiy va ijtimoiy ta'sir	Demokratiyaning rivojlanishi, ochiqlik va shaffoflik, ijtimoiy adolat, davlat va jamiyat boshqaruvining elektronlashuvi	Propaganda va manipulyatsiya, siyosiy noustuvorlik, total nazorat, olomon madaniyatini rivojlantirish

6.	Psixologik va shaxsiylik	O'z-o'zini rivojlantirish, ijodkorlikni rivojlantirish, emosional qo'llab-quvvatlash	Ongni ortiqcha yuklash, stres va depressiyalar, ijtimoiy qiyoslash, onlayn qaramlik
7.	Ekologiya va atrof-muhit	Ekologik xabardorlik, texnologik yechimlar, ommaviy faollik	Elektron chiqindilar, energiya iste'moli, ekologik muammolarni yetarlicha yoritmaslik

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, axborotning ta'siri ko'p qirrali va murakkab. U bir tomondan insonning rivojlanishi, aloqa va global muammolarni hal qilishda ulkan imkoniyatlar yaratasa, boshqa tomondan, noto'g'ri yoki mas'uliyatsiz ishlatilsa, jamiyat, ma'naviy qadriyatlar va shaxsiy hayotga jiddiy xavf tug'diradi.

4. Dunyoning ijtimoiy aloqalar manzarasi. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy dunyoda odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirdi. An'anaviy yuzma-yuz muloqot o'rini virtual chatlar, videoqo'ng'iroqlar va postlar almashinuvi egalladi. Bu jarayon ijobiy jihatlarga ega: masofa va vaqt chegaralarini yo'qotib, global miqyosda aloqa o'rnatish imkonini berdi. Masalan, bir O'zbekiston fuqarosi bir zumda AQSH yoki Yevropadagi do'sti bilan muloqot qilishi mumkin. Ammo, bu o'zgarishlar "ijtimoiy yolg'izlik" kabi yangi muammolarni keltirib chiqardi. Tadqiqotlardan ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazadigan odamlar real hayotda o'zini ko'proq yolg'iz his qiladi [7].

5. Dunyoning madaniy manzarasi. Ijtimoiy tarmoqlar global madaniyatning tarqalishini tezlashtirdi va mahalliy madaniyatlarning o'ziga xosligiga ta'sir qildi. Masalan, TikTokda virusli raqslar yoki Instagram'da mashhur bo'lgan moda trendlari yoshlar orasida bir xil madaniy odatlarni shakllantirdi. Bu jarayon global birlashuvni kuchaytirsa-da, milliy o'ziga xoslik va an'anaviy qadriyatlarining yo'qolishi xavfini ham oshiradi. O'zbekistonda yoshlar orasida G'arbcha turmush tarzi va

iste'molchilik madaniyatining ommalashishi bunga misol bo'la oladi.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlarning bugungi kundagi zamonaviy dunyoning manzarasiga etayotgan ta'siri uni tadqiq etishi taqazo etmoqda. Shu o'rinda xulosa qilib, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bu boradagi fikrlariga e'tibor qaratish o'rinnidir: "Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz. Ijtimoiy tarmoqlarda buzg'unchi g'oyalarga qarshi tizimli ish olib borishimiz kerak"[8]. Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda umuman axborotlashuv davrida yoshlarni asrab-avaylash, uning salbiy illatlaridan himoya qishi oldinda turgan eng muhim vazifa ekanligini anglamog'imiz lozim. Bunday konseptual fikrlar:

- bugungi kunda axborot, yoki axborot almashinuv omilining yetakchi o'ringa chiqqanligini;
- insoniyat ushbu omilning ta'siriga beparvo bo'lmasligi lozimligini;
- axborot omilining kuchiga loqaydlik bilan qarash milliy taraqqiyotda zararli oqibatlarini keltirib chiqarishini;
- jahon taraqqiyotidan orqada qolish fuqarolar kelajagiga soya soluvchi tahdid ekanini;
- davlatning bugungi shiddatli taraqqiyoti sharoitida hech kim beparvolik kayfiyatiga berilmasligi, ilgari intilish va hushyorlik bugun har qachongidan ham muhim ekanini bildiradi [9].

ADABIYOTLAR

- Pierre M. Gallois. Géopolitique. Les voies de la puissance. https://www.persee.fr/doc/polit_0032-342x_1991_num_56_1_4025_t1_0318_0000_3
- Jumayev R., Yovqochev Sh. Siyosiy texnologiyalar: O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDSH, 2018. – B. 218.
- Дугин А. Основы геополитики. -М.: изд-во "Апретарей". 1997. -С.15-17.
- Samadov A.R. Geosiyosat asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2021. – B.232.
- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февраль "Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон фармони. <https://lex.uz/acts/3107036>
- Хўжанов Б.А. Геомафкуравий ўзгаришлар шaroитида миллий-этниқ муносабатлар (Марказий Осиё минтақаси мисолида): сиёс. фан. ф.д. (PhD) дис. – Тошкент, 2002. – Б.76-77.
- Primack B.A., et al. (2017). Social Media Use and Perceived Social Isolation Among Young Adults. American Journal of Preventive Medicine.
- Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati – Gazeta.uz, 2016-yil 7-dekabr. <https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/07/speech/>
- Ражабов Ҳ.И. Глобаллашув шарoитида давлатнинг ахборот сиёсати (Ўзбекистон Республикаси мисолида): сиёс. фан. ф.д. (PhD) дис. – Тошкент, 2018. – Б.53-54.
- Crowdfunding <https://www.crowdfunding.com/>